

Oriental Journal of Education



PROBLEMS IN THE USE OF ONLINE TECHNOLOGIES IN THE ENGLISH LANGUAGE TEACHING ENVIRONMENT

Gulsara Ismatilloevna Samandarova

Senior teacher of Foreign languages

Tashkent state agrarian university

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: English language, online technology, problems, teaching process, modern pedagogical trend, forms of individual communication.

Received: 17.01.26

Accepted: 18.01.26

Published: 19.01.26

Abstract: This article analyses the issues of teaching English online for students in foreign language education. Teaching English through electronic technologies is currently emerging as a modern pedagogical trend. This educational trend necessitates the adoption of new pedagogical approaches, particularly interactive and individual forms of communication with students.

INGLIZ TILINI O'QITISH MUHITIDA ONLAYN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR

Gulsara Ismatilloevna Samandarova

Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi

Toshkent davlat agrar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ingliz tili, onlayn texnologiya, muammolar, o'qitish jarayoni, zamonaviy pedagogik trend, individual muloqot shakllari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy til ta'limida talabalar uchun ingliz tilini onlayn shaklda o'qitish masalalari tahlil qilinadi. Ingliz tilini elektron texnologiyalar orqali o'qitish bugungi kunda zamonaviy pedagogik trend sifatida shakllanmoqda. Mazkur ta'limiy tendensiya yangi pedagogik yondashuvlarni, xususan, talaba bilan interaktiv va individual muloqot shakllarini egallash zaruratini keltirib chiqaradi.

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОНЛАЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В СРЕДЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Гулсара Исмаиловна Самандарова

Старший преподаватель кафедры Иностранных языков

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: английский язык, онлайн-технологии, проблемы, учебный процесс, современная педагогическая тенденция, формы индивидуального общения.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы преподавания английского языка онлайн для студентов, изучающих иностранные языки. Преподавание английского языка с помощью электронных технологий в настоящее время становится современной педагогической тенденцией. Эта образовательная тенденция требует применения новых педагогических подходов, в частности интерактивных и индивидуальных форм общения со студентами.

Kirish. Hozirgi zamonda axborotni qidirish va qayta ishlash usullarini tubdan o'zgardi. Shuning uchun ta'lim texnologiyalari ham avvalgidek qolishi mumkin emas. O'qituvchilar talabalar bilan o'zaro aloqaning yangi shakllarini izlashlari, ularni axborotni boshqacha qayta ishlash va ifodalash imkoniyatiga ega qilishlari, shuningdek, darslarni zamonaviy yoshlar talab qiladigan yangi darajaga olib chiqishlari zarur [3]. Onlayn ta'limning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u har qanday joyda va istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin. K.A.Melnikova ta'kidlaganidek, bu ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi. Masofaviy ishga moslashtirilgan ta'lim materiallaridan foydalanish ushbu ta'lim formatini samarali qiladi. Chet tillarini o'qitishda bunday materiallar maxsus dasturiy ta'minotlar, interaktiv prezentatsiyalar, onlayn o'quv qo'llanmalar, onlayn mashqlar, video, audio va matn resurslarini o'z ichiga oladi [7].

Bugungi kunda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalar bilan onlayn darslar o'tkazish uchun videokonferensiya platformalarini tanlamoqdalar (Zoom, Skype, Microsoft Teams, Google Forms, Mirapolis va boshqalar). Ushbu platformalar matn fayllari, veb-sahifalar, audio fayllar, prezentatsiyalar va turli veb-sahifalarga havolalardan foydalangan holda masofaviy ishni amalga oshirish imkonini beradi. Interaktiv doska, video fayllar, ekran va prezentatsiyalarni namoyish qilish, umumiy va shaxsiy chat kabi vositalar darslarni rang-baranglashtirish va talabalar-nelingvistlarga murakkab lingvistik materialni tushunarli yetkazish imkonini beradi [4, b.97].

Shu bilan birga, masofaviy ta'lim jarayonida talabalar bir qator muammolarga duch kelishi mumkin. Birinchidan, talabalar va o'qituvchilar tez-tez noaniq yoki uzluksiz internet aloqasi yoki kompyuter bilan bog'liq texnik qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli darsdan oldin o'qituvchi talabalar kompyuter savodxonligi darajasini aniqlashi zarur. Garchi talabalar texnologiyalarda o'qituvchilardan tezroq harakat qilsa-da, amaliyotda hatto bitta talaba sababli dars kompyuter fanlarini

o'rgatishga aylanishi mumkin. Shu bois, onlayn darsni boshlashdan oldin texnik muammolarni qanday hal qilish bo'yicha talabalar bilan oldindan kelishib olish muhimdir.

Onlayn darsni boshlashdan oldin video-ko'rsatma tayyorlash samarali usuldir. Agar talabalarga biror narsani tushuntirish kerak bo'lsa, o'qituvchi har safar dars vaqtini texnik muammolarni tushuntirishga sarflashi mumkin. Bir marta video-instruktsiya tayyorlab, talabalar bilan ulashish esa ushbu vaqt yo'qotilishini kamaytiradi va darsni o'z vaqtida boshlashga yordam beradi. Shuningdek, texnik muammolarni bartaraf etishning yana bir usuli – vaqtincha masofaviy ulanishni yaratish. Masalan, TeamViewer dasturi boshqa kompyuterga masofadan ulanish va zarur sozlamalarni amalga oshirish imkonini beradi. O'qituvchi talaba uchun TeamViewer o'rnatish va vaqtincha kirish huquqini berish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlashi lozim.

Onlayn darslar sifatli ovoz uchun o'qituvchi va talaba uchun minigarnitura ishlatish tavsiya etiladi. Hatto talaba noutbukdan foydalansa ham, minigarnitura ulash tovushning ikki karra bo'lishi, kechikish va boshqa shovqinlarni oldini oladi. Ikkinchidan, onlayn platformalar operatsion tizimlar, brauzerlar yoki talabalar smartfonlari bilan mos kelmasligi tez-tez uchraydigan muammo hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchi va talabalar kompyuter orqali ishlashlari tavsiya etiladi, chunki telefon modellari va ilovalari turlicha ishlashi mumkin.

Uchinchidan, o'qituvchi offlayn rejimdan onlayn rejimga o'tishda o'zini ishonchli his qilish uchun platformani avval o'zida sinab ko'rishi lozim. Har bir platformaning o'z afzalliklari va kamchiliklari mavjud, shuning uchun asosiy vazifa dasturiy ta'minotni puxta o'zlashtirishdir. To'rtinchidan, samarali onlayn dars uchun barqaror internet aloqasi muhimdir. Texnik nosozliklar, elektr uzilishlari yoki qurilmalar zaryadining yetarli emasligi dars sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bois, zaxira rejalar, mobil internet yoki darsni telefon orqali davom ettirish imkoniyatlari oldindan ko'rib chiqilishi lozim.

Shuningdek, talabalar, ayniqsa birinchi kurslarda, brauzer sozlamalari bilan tanish emasligi yoki elektron pochtaga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi texnik masalalarni yaxshi bilishi va talabaga yordam bera olishi zarur. Internet tezligi va sifati, gadjetlar va elektrga bog'liqlik, shuningdek texnik muammolar onlayn ta'limning muammolari hisoblanadi [9, b.407].

Chet tillarini o'qitishda vizual kontaktning yo'qligi ham muammo tug'diradi. O'qituvchi ko'pincha faqat bir talaba bilan ishlaydi, shuning uchun guruhning barcha a'zolarini baholay olmaydi, ularning diqqat-e'tibor darajasi va jalb qilinishi ko'rinmaydi, tana tili va emotsiyalar yo'qoladi [8]. Shu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi har bir talabaga ism bilan murojaat qilishi, iliq va do'stona ohangda so'zlashi tavsiya etiladi. Albatta, an'anaviy auditoriya darslari talabalarni o'qitish jarayoniga yaxshiroq jalb qiladi. Onlayn darslarda talabalar ba'zan noto'g'ri sharoitlarda, masalan, jamoat joylarida yoki uy ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi, bu esa e'tiborni kamaytiradi va til

materialini o'zlashtirish sifatiga ta'sir qiladi [8, b.129]. Shu sababli o'qituvchi talabalarni ish joyini oldindan tayyorlashga, chalg'ituvchi omillarni bartaraf etishga yo'naltirishi kerak.

Onlayn darslarni tayyorlashda talabalar-nelingvistlar uchun qiziqarli va sifatli material yaratish ko'proq mehnat talab qiladi, lekin bu muammo ham yangi ko'nikmalarni egallash orqali hal qilinadi. Internetdagi mavjud interaktiv resurslar va mobil ilovalar (Duolingo, Busuu, Lingua.ly va boshqalar) yordamida darslarni rang-baranglashtirish mumkin [7]. Interaktiv saytlar (British Council, Livemocha, PuzzleEnglish va boshqalar) audio, video, o'quv o'yinlar, matn va mashqlarni taqdim etadi. Video-resurslar (TED talks, Ello, DelightEnglish) esa o'qituvchiga onlayn darslarni tayyorlashda yordam beradi.

Shunday qilib, onlayn ta'lim talabalar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi: talabalar gadgetlardan foydalanishni o'rganadi, moslashuvchan bo'lib, o'z bilimlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladi [6, b.14]. Onlayn texnologiyalar yordamida talabalar-nelingvistlar mustaqil o'qish, individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Til portfeli esa talabaga o'z o'qish jarayonini refleksiya qilish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

K.A.Melnikova ta'kidlaganidek, istalgan joyda va istalgan vaqtda amalga oshiriladigan onlayn ta'lim yuqori darajadagi ta'lim olish imkonini beradi. Shu bilan birga, masofaviy ishlashga moslashtirilgan ta'lim resurslari – o'quv dasturlari, dasturiy ta'minotlar, leksiyalar, interaktiv prezentatsiyalar, o'quv qo'llanmalar, mashqlar to'plamlari, shuningdek video, audio va matnli materiallar kabi vositalardan samarali foydalanish bunday ta'lim shaklini haqiqatan ham natijali qiladi [4]. So'nggi yillarda ushbu mavzu nafaqat rus olimlari tomonidan ham e'tibor markazida turibdi. Maxsimova [3] ta'kidlaganidek, adaptiv ta'lim muhiti – bu o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga moslasha oladigan, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga moslashuvchan va shaxsning individual qobiliyatlariga maksimal darajada moslasha oladigan ijtimoiy-pedagogik tizimdir. Shu nuqtai nazardan, onlayn metodik qo'llab-quvvatlash faqat ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi vosita emas, balki adaptiv axborot-ta'limiy muhitning ajralmas elementi bo'lib, u tizimli va interaktiv kommunikatsiya shaklida tashkil etiladi hamda ingliz tilini o'qitish va o'rganish jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan metodik, resursli va ilmiy yordamni talabalar va pedagoglarga taqdim etadi [2].

Ushbu tavsif axborot-ta'lim tizimini ikki jihatdan ko'rib chiqishga imkon beradi: bir tomondan, u turli raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda talabalar faol ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil tizim sifatida; boshqa tomondan, u tashqi muhit omillari bilan korrigatsiya qilingan klassik ta'lim tizimining bir qismi sifatida qoraladi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda chet tilini, xususan ingliz tilini o'qituvchi va talabalarni metodik qo'llab-quvvatlash sohasida mutaxassislarni tayyorlashga oid tizimli yondashuvlar mavjud emas. Shu bois, talabalarga va

o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishni samarali tashkil etishning real variantlaridan biri bu xalqaro va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdir.

Hozirgi kunda onlayn-tyutorlik milliy amaliyotda keng tarqalmagan bo'lsa-da, muayyan talaba yoki talabalar guruhiga javobgarlikni olgan pedagog keng ko'lamli kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Bu kompetensiyalar qatoriga yetakchilik qobiliyati, rejalashtirish va tashkiliy ko'nikmalar, muammolarni tahlil qilish va hal etish, ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash, og'zaki kommunikatsiya va ishonitirish san'ati, shaxslararo tushunish, qat'iyatlilik, moslashuvchanlik hamda stressga chidamlilik kiradi. Ushbu xususiyatlarning barchasi yagona tyutorlik kompetensiyasi sifatida birlashtirilishi lozim. Mazkur kompetensiyaga ega bo'lgan pedagog, talabaga an'anaviy o'quv-kommunikativ jarayonni to'liq tashkil etish imkoniyati bo'lmasa ham, zarur bilimlarni yetkazish, ingliz tilini o'rganish uchun kerakli ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish, shuningdek, talabaning o'z natijasini optimallashtirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatini aniqlashga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantira oladi.

Ta'lim jarayonini ma'lum bir adaptiv axborot-ta'lim muhitida tashkil etish masalalarini faollashtirish orqali onlayn-metodik qo'llab-quvvatlash mexanizmini nafaqat ingliz tili, balki boshqa chet tillarini o'rgatishda ham kengaytirish mumkin. Bu esa talabalarning kelajak mutaxassisleri sifatida XXI asr ko'nikmalarini [2] samarali o'zlashtirishini sezilarli darajada yengillashtiradi va oliy ta'limning majburiy natijasini ta'minlaydi.

Ta'lim tashkilotlari har bir talabani zamonaviy mehnat bozori va kelajak kasblarining talablariga tayyorlashi lozim. Onlayn-o'qitish samaradorligi bevosita pedagogning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyaning alohida komponentlarini shakllantirish tizimini optimal tarzda tashkil etish qobiliyatiga va talabani samarali raqamli resurslar bilan o'zaro ta'sirga asoslangan o'quv jarayoni sifatida yo'lga qo'yishiga bog'liq.

Shuningdek, onlayn-o'qitish chet tili sifatida ingliz tilini o'rganishda motivatsion omil bo'lib xizmat qiladi va bu oliy ta'limda shaxsiy, metafanaviy hamda fan doirasidagi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olgan holda, chet tilida ingliz tilini onlayn shaklda o'qitish jarayonini ta'minlash uchun sifatli va innovatsion metodik materiallar ishlab chiqish istiqbolliligi alohida ta'kidlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, onlayn ta'lim samaradorligi darsning tashkiliy tomonlari va ishlatiladigan material sifatiga, shuningdek, o'qituvchining talabalarni motivatsiya qilish va jarayonga jalb qilish qobiliyatiga bog'liq. Onlayn ta'lim zamonaviy, amaliy va qonuniy jihatdan qo'llaniladigan ta'lim shakli bo'lsa-da, uni to'liq joriy etish chet tillarini o'qitishda barcha muammolarni hal qilmaydi. Shu sababli eng samarali yondashuv – masofaviy ta'lim elementlarini an'anaviy darslarga integratsiya qilish orqali talabalarning jalb qilinishini oshirish va o'qish sifatini yaxshilashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Коряковцева Н.Ф., Щукин А.Н. Современная образовательная среда и преподавание иностранных языков [Электронный ресурс] // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Образование и педагогические науки. 2018. № 4 (808). С. 11-18.
- 2.Пинская М.А., Михайлова А.М., Рыдзе О.А., Денищева Л.О., Краснянская К.А., Авдеенко Н.А. Навыки XXI века: как формировать и оценивать на уроке? [Электронный ресурс] // Образовательная политика. 2019. № 3 (79). С. 50-62. URL:
- 3.Максимова Н.А. Формирование адаптивной образовательной среды учебного заведения: анализ проблемы [Электронный ресурс] // Концепт. 2018. № 10. С. 889-898.
- 4.Мельникова К.А. Осуществление дистанционного обучения иностранному языку в неязыковом вузе // Материалы VIII Международной научно-практической конференции «Вопросы современной филологии и проблемы методики обучения языкам» (г. Брянск, 16–17 октября 2020 г.). Брянск: Изд-во ФГБОУ ВО БГПУ, 2020. С. 242-247
- 5.Портал психологических изданий PsyJournals.ru — https://psyjournals.ru/journals/langt/archive/2021_n4/Novikova [Особенности онлайн-обучения английскому языку как иностранному // Язык и текст — 2021. Том 8. № 4].
- 6.Бордовский, П.Г. Роль и место дистанционных образовательных технологий в современных информационных технологиях обучения / П.Г. Бордовский, Ю.Н. Ершова // Труды кафедры биомеханики университета имени П.Ф. Лесгафта. – 017.Т. – 2017. – №1(10). – С. 12-15.
- 7.Горева, О.М. Перспективы развития дистанционной формы обучения студентов / О.М. Горева, Л.Б. Осипова // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2. – С. 645-645.
- 8.Лубожева, Л.Н. Информационно-технологическое сопровождение для формирования коммуникативной компетенции дистанционно / Л.Н. Лубожева // Международный научно-исследовательский журнал. – 2020. – № 9-2 (99). – С. 128-131.
- 9.Пятко, Л.А. К вопросу об использовании дистанционных технологий в системе вузовского образования / Л.А. Пятко, Л.А. Стародумова // Педагогический журнал. – 2019. – Т. 9. – № 2 А. – С. 403-409.
- 10.Сарсенбаева З. Modernism in Uzbek literature and interpretation of images //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 193-199.
- 11.Сарсенбаева З. Analysis of images and symbols in english non-realistic works //Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 229-232.